



“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2025-yil, 12-13-noyabr

“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY AND TRANSLATION STUDIES”

international scientific and practical conference

November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV
akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic
“Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

SINXRON TARJIMASHUNOSLIKNING ZAMONAVIY MASALALARI

Muhammadjon Abduvaliyev,

ADChTI professori. f.f.d.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.12.11/TFYH5724

Annotatsiya. Ushbu maqolada sinxron tarjimashunoslikning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy taraqqiyot jarayonlari yoritilgan. Globallashuv sharoitida xalqaro diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarning kengayishi sinxron tarjimaga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga sabab bo‘layotgani asoslab berilgan. Sinxron tarjimaning tarixiy davrlari, tarjimon faoliyatining psixolingvistik, lingvistik va texnik omillar bilan bog‘liqligi ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, sinxron tarjimaga xos strategiyalar, xususan kompressiya va segmentatsiya kabi usullar mazmunan sharhlangan. Maqolada sinxron tarjimon-sinxronistlarga qo‘yiladigan malaka talablari ko‘rsatilgan hamda O‘zbekistonda sinxron tarjima sohasini rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: *sinxron tarjima, tarjimon-sinxronist, kompressiya, stolling, segmentatsiya, izchil tarjima, konferensiya tarjimasi, globallashuv.*

Abstract. This article examines the formation, development stages, and contemporary issues of simultaneous interpretation studies. It highlights that the expansion of international diplomatic, political, economic, cultural, and academic relations in the context of globalization has significantly increased the demand for simultaneous interpretation. The historical development of simultaneous interpreting, as well as its psycholinguistic, linguistic, and technical aspects, are analyzed based on scholarly sources. Furthermore, strategies characteristic of simultaneous interpretation—such as compression, stalling, and segmentation—are discussed. The article outlines the required professional competencies for simultaneous interpreters and proposes practical recommendations for advancing simultaneous interpretation training and practice in Uzbekistan.


Keywords: *simultaneous interpretation, simultaneous interpreter, compression, stalling, segmentation, consecutive interpretation, conference interpreting, globalization.*

Dunyoda mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, sport, fan-texnika, ta‘lim kabi yuzlab sohalar doirasidagi hamkorlik aloqalarida globallashuv jarayoni har qachongidan ko‘ra chuqurlashish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Globallashuv jarayoni dunyo mamlakatlari, xalqlarini o‘zaro yaqinlashuvi, hamkorlik rishtalarini zabardastlashuvi qator obyektiv va subyektiv omillar hisobiga keng tus olmoqda. Masalan, bunday subyektiv faktorlar sirasiga davlatlar, millatlar va etnoslar o‘rtasida mavjud bo‘lgan urush va tinch-totuv yashash, dunyo hamjamiyatida suveren davlat maqomiga ega bo‘lish va iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olishga bo‘lgan intilish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, insoniyat mulkiga aylangan fan, texnika yutuqlaridan bahramand bo‘lish, kelajak avlodlar uchun munosib yashash, shart-sharoitlarni yaratish va boshqalarni kiritish mumkin. Ekologik, iqtisodiy va boshqa muammolarga birgalashib, hamjihatlikda ijobiy yechim topish (iqtisodiy inqiroz, suv taqchilligi, global isish, turli tabiiy ofatlar, ocharchilik, bedavo kasalliklarga qarshi kurashish kabilar globallashuv chuqurlashuviga sabab bo‘layotgan asosiy obyektiv omillardir.

Dunyoda har yili 4000 dan ziyod xalqaro uchrashuvlar, kongress va anjumanlar bo‘lib o‘tmoqda va ularning hech biri qator mamlakatlar vakillari ishtirokisiz, sinxron tarjimasiz o‘tmaydi. Bu hol dunyo miqyosida sinxron tarjimaga bo‘lgan ehtiyojning keskin ortganligidan va xalqaro munosabatlar kengayishi va rivojida uning roli beqiyoslik kasb etayotganligidan dalolat beradi.

Tarjima faoliyati inson omili bilan bog‘liq. Tarjimonning asosiy vazifasi chet tilidan ona tiliga yoki, aksincha. Tarjimada asliyatdagi ma‘no va mazmunni qanday bo‘lsa o‘shandayligicha transformatsiya qilishdan iborat. Tarjima faoliyati quyidagilardan tarkib topadi:



Tarjima tushunchasi tor va keng ma’nolarda qo’llaniladi. Tor ma’noda tarjima deganda tipologik va geneologik jihatdan farq qiluvchi tillardan biridagi og’zaki yoki yozma matn (diskurs)ni boshqa biriga o’girish tushuniladi. Keng ma’noda esa qarindosh va qarindosh bo’lmagan tillardan qilinadigan har qanday tarjima, shuningdek, adabiy tildan uning dialektiga (yoki aksincha), qadimiy tildan uning zamonaviy ko’rinishdagi tiliga qilinadigan tarjimalar tushuniladi.

Bizningcha, ushbu qatorga intralingvistik tarjima, ma’lum tilda u yoki bu til va nutq birligi ifodalagan ma’no yoki mazmuni boshqa lisoniy va nolisoniy vositalar orqali berish ham kiradi. Shu nuqtayi nazardan tashqi va ichki tarjimalarni farqlash mumkin bo’ladi.

Sinxron tarjima tarixini uch davrga bo’lish mumkin:

1. Tillari har xil halqlar o’rtasida og’zaki sinxron tarjimaga ehtiyoj tug’ilgan davrlardan to XX asr o’rtalariga qadar bo’lgan davr.
2. XX asrning 60-yillaridan to 2000-yillarga qadar bo’lgan davr.
3. XXI asr boshlaridan to shu kunga qadar bo’lgan davr.

Sinxron tarjimaning yuzaga kelishidagi dastlabki omillar turli til vakillari o’rtasida ijtimoiy munosabatlarni o’rnatishga bo’lgan zarurat bilan bog’liq bo’ldi. Dunyo siyosiy xaritasini qayta tuzishga bo’lgan harakatlar, birinchi va ikkinchi jahon urushlari sinxron tarjimaning miqyosi va rolini oshishiga sabab bo’ldi.

Sinxron tarjima rivojining ikkinchi davrida sinxron tarjimaning xususiy va umumiy muammolari tadqiqiga bag’ishlangan qator ishlar yuzaga keldi. Xususan, notiq nutqi tarjimasida tarjimonning kechikishi temporallik, sinxron tarjima birligi, uni tanlash notiq nutqining tezligi, kalit (fe’l, predikativ guruh) so’zlarning gap tarkibidagi o’rni kabi masalalari tarjimon faoliyatining ajralmas va muhim omillari sifatida D.Gerver, P.Oleron, X. Nalon, F. Goldman-Eysler kabilar tomonidan o’rganildi.

Notiq nutqi tezligini tarjima sifatiga ta’sir qiluvchi muhim omil sifatida qaragan D.Seleskovich va D.Gerverlar uning maksimum va minimum chegaralarini belgilashga harakat qilganlar va bir daqiqada 100–120 so’zni tarjima qilish normal, 150-200 so’zni tarjima qilish anormal holat sifatida baholaganlar.

Chet tildagi nutq segmentatsiyasi masalasi F.Goldman-Eysler, D.Barik, Z.A.Kochkina va boshqalar tomonidan o’rgatilgan bo’lib, ular chet tildagi nutq va tarjimon tomonidan amalga oshirilgan nutq o’rtasidagi pauzalar, ohang va urg’u mosligi masalasi tajribalar orqali tadqiq etilgan. F.Goldman-Eysler og’zaki nutq segmentatsiyasining uch usulini farqlaydi:

1. Tarjimon-sinxronist nutqining chet tildagi nutq bo’linishiga to’liq mos tushgan segmentatsiya.

2. Chet tildagi uzluksiz davom etayotgan nutq tarjimasini u tugaguniga qadar mayda nutqiy bo‘laklarga bo‘lish.

3. Chet tildagi ikki-uch nutq bo‘laklarini tarjima tilida yagona nutq bo‘lagiga birlashtirib (qo‘shib) yuborish [8; 127–140].

Soha tarjimonlari tomonidan ingliz, fransuz va nemis tillaridan qilingan tarjimalar tahlili asosida muallif nutqni qisqa bo‘laklarga ajratish orqali tarjima qilish 48% ni tashkil etgani, chet tildagi nutq tezligining jadallashuvi uni o‘xshash bo‘laklarga ajratib tarjima qilish usulining ham ahamiyatining oshishiga sabab bo‘lishini ta’kidlagan holda bunday nutq bo‘lagining predikativ markazi bo‘lishi shart, deb hisoblaydi.

A. I. Uelford fikricha, diqqat bajariladigan vazifalar bo‘yicha tarqaladi va u shaxsning maqsadlari orqali boshqariladi. Sinxron tarjima jarayonida notiq nutqi tez bo‘lmasa, eshitish yaxshi bo‘lsa, u chet tildagi nutq mazmunini yaxshi tushunadi, diqqati oson bo‘ladi. Aks hollarda diqqat e’tibor dekodlash va kodlashga qaratiladi.

Sinxron tarjima taraqqiyotning uchinchi davri tom ma’noda globallashtirilgan tarjima faoliyati maqomiga ega bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, sinxron va izchil tarjima qo‘llanilishida ixtisoslashuv ro‘y berdi. Endilikda sinxron tarjima ko‘p tomonlama (ko‘p tilli) diplomatiya uchun qo‘llanayotgan bo‘lsa, izchil tarjima ikki tomonlama diplomatik aloqalarni rivojlantirish maqsadlarida o‘tkazilayotgan muzokara va uchrashuvlarda faol ravishda qo‘llanmoqda. Dunyo miqyosida professional tarjimon sinxronistlarga bo‘lgan ehtiyojning sezilarli darajada ortganligi dunyoning qator mamlakatlari universitetlari, institutlari va tarjima maktablarida oliy ma’lumotli, maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan tarjimon mutaxassislar yo‘lga qo‘yilishiga olib keldi.

Sinxron tarjima rivojining ushbu bosqichida uning nazariy, eksperimental, psixologik, lingvistik va ta’lim metodlari masalalari G. V. Chernov, O. A. Leontovich, V. M. Ilyuxin, I. V. Gurin, I. V. Zubanova, N. V. Andreyeva, I. S. Alekseyeva, N. S. Kazanseva, L. P. Tarnayeva, S. Fyugen, J. Nollan, E. Oncins, S. Ramler, K. G. Siber kabilarning tadqiqotlarida o‘rganildi, qator elektron resurslar yaratildi.

O. A. Leontovich og‘zaki sinxron tarjima bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar-ning psixofiziologik yuklamasiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi 8 ta muhim omillarni ko‘rsatib beradi. Bular:

- 1) tarjimon-sinxronist kabinasidagi harorat va havo sifati;
- 2) tovush izolyatsiyasi va kabinadagi tovush sifati;
- 3) vaqtning chegaralanganligi;
- 4) buyurtmachi bilan munosabatlar;
- 5) kabinadagi hamkasbi bilan munosabat;
- 6) til bilish darajasi;
- 7) tarjima mavzusi bo‘yicha bilimlar ko‘lami;
- 8) notiq nutqiga xos xususiyatlar (aksent, tushunib bo‘lmas, bog‘lanmagan nutq) [5; 14–19].

Sinxron tarjima usul va strategiyalari, ularni tanlash masalalarini V. M. Ilyuxin, I. V. Gurin, V. Donato, O. A. Leontovich atroflicha yoritib berilgan. O. A. Leontovich bunday usul va strategiyalarning 3 guruhini farqlaydi: 1) qiyinchiliklarni bartaraf etish strategiya va usullari; 2) tarjima tilidagi matnni soddalashtirish strategiya va usullari; 3) qaltis vaziyatlardan chiqish strategiya va usullari [5; 19].

V. M. Ilyuxin o‘z izlanishlarida nutqiy kompressiya strategiyasiga alohida to‘xtaladi. Haqiqatan, ayrim kommunikativ vaziyatlarda (notiq nutqi yuqori darajada tezlashganda va ayrim murakkab mazmunli sintaktik konstruksiyalar o‘rnida sodda konstruksiyalarni qo‘llash imkoni

mavjud hollarda) axborotni ixcham va lo‘nda ifoda etish mumkin bo‘ladi. V. M. Ilyuxin sinxron tarjimada kompressiyaning to‘rt turidan biri yoki bir nechtasini qo‘llash mumkinligini aytadi:

1. Bo‘g‘in kompressiyasi, ya‘ni bo‘g‘inlar kam bo‘lgan so‘zni tanlash.
2. Sintaktik kompressiya, ya‘ni kam so‘zli ixcham konstruksiyalarni tanlash.
3. Leksik kompressiya, fikrni so‘zlarni kam ishlatgan holda ifodalash.
4. Semantik kompressiya, nutqda takrorlanuvchi ko‘p so‘zlarni qisqartirish; [3; 92].

Sinxron tarjimada qo‘llanadigan stolling (ingliz. Stalling) strategiyasi vaqtni cho‘zish ma‘nosida qo‘llangan. V. Donato fikricha, uning mohiyati aslyat matnda mavjud bo‘lmagan va o‘zida mazmuniy yuklama ta‘minlaydigan axborot hisobiga vaqtdan yutish maqsadida ma‘lum birlikni qo‘llashdan iborat. [10; 132]. Mazkur strategiyani qo‘llashda tarjimon murakkab tarkibli so‘z, so‘z birikmasini topish imkoniyatiga ega bo‘ladi, lekin u notiq nutqini tinglashda davom etaveradi.

Tarjimon-sinxronistlarning samarali faoliyati uchun zarur bo‘lgan Sintegrus, Philips, Bosh, Braker, Radiogid kabi zamonaviy uskunalar sinxron-tarjima faoliyatida keng qo‘llanilmoqda.

Bugungi kunga kelib sinxron tarjimaning soha mutaxassislari tomonidan asl-sinxron tarjima, pichirlab qilingan tarjima, videomatnni sinxronlashtirish, varaqdan tarjima, avval tarjima qilingan matnni sinxron o‘qish va sinxron izchil tarjima turlariga ajratilmoqda [5; 17–21]. Sinxron tarjimaning eng muhim jihati shuki, unda notiq nutqini qabul qilish (tinglash, tushunish, qayta ishlash va sintezlash) va tarjima tili o‘sha nutqni qayta yaratish. (lisoniy vositalar orasidan mos tushadigani tanlash va og‘zaki ifoda etish) harakatlari parallel ravishda sodir bo‘ladi. Og‘zaki tarjimaning ushbu turi asosan rasmiy xalqaro tadbirlarda keng qo‘llanilmoqda. Bunday hollarda tarjimon nutqiy axborotni maxsus jihozlangan mikrofon, quloqchin, boshqaruv paneli yordamida kabinada o‘tirgan holda yetkazadi.

Sinxron tarjimaning ushbu turi oddiy, kundalik norasmiy muloqot sharoitlarida ham qo‘llanilishini kuzatdik. Tarjimon sinxronist moderatorlik qiluvchi hayotiy nutqiy kontekstlarda texnik jihozlarning bo‘lishi shart emas. Eng qizig‘i, tarjima jarayonida uslub nuqtai nazaridan neytral vositalarni qo‘llashda erkin harakat qiladi. Ba‘zan verbal vositalar bilan birgalikda, ko‘pincha tana a‘zolaridan ham ifoda vositasi sifatida foydalaniladi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, odatda, sinxron tarjimada tarjimon-sinxronist zimmasiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Aslyat va tarjima tillariga xos lingvistik va sintaktik bilimlarni puxta egallagan bo‘lishi;
2. Sinxron tarjima qo‘llanayotgan soha muloqot mavzusiga oid termin, leksik birliklarni maksimal darajada egallagan bo‘lish;
3. O‘z nutqini boshqara olish va tezkor tanlov malakalariga ega bo‘lish;
4. Tarjima amalga oshirilayotgan til egalarining tarixi, mentaliteti, madaniyati va urf-odatlarini bilish; madaniyatlararo muloqot borasida kompetent bo‘lish;
5. Nutqiy malakalariga ega bo‘lish axborotni tez qayta ishlash;
6. Bir vaqtning o‘zida diqqatini nutqini qabul qilish va nutqini yaratishga bera olishi;
7. O‘zga nutqni tez va oson ixchamlashtirish (kompressiya) malakalariga ega bo‘lish;
8. Notiq aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni oldindan prognozlash qobiliyatiga ega bo‘lish;
9. Har qanday ruhiy, aqliy zo‘riqlashlarga chidamli va sabrli bo‘lish;
10. Tez va oson eslab qolish (xotirlash) qobiliyatiga ega bo‘lish;
11. Diskurs mavzusi, mazmuni va uning segmentlarini tezkor ilg‘ash va guruhlash malakalari rivojlangan bo‘lishi kabilar.

Yozma-og‘zaki sinxron tarjima (varaqdan tarjima)ning o‘ziga xos tomoni shundaki, unda eshitish va ko‘rish a‘zolari ishtirok etadi. A. F. Shiryayevning yozishicha, u og‘zaki tarjima, og‘zaki nutq va yozma manbalarning og‘zaki tarjimasi o‘rtasida oraliq o‘rnini egallaydi [11; 3]. Tarjimon-

sinxronist ushbu holda notiq nutqi bilan emas, balki tarjima qilingan yozma material bilan ish ko‘radi. Sinxron tarjimaning ushbu tipi xalqaro tadbirlarda qatnashmayotgan rasmiylarning nutqlari, xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan rezolyutsiyalar, qarorlar, murojaatlar kabilardan iborat bo‘lishi mumkin.

Izchil tarjima og‘zaki tarjima usulidir. U mohiyatan sinxron tarjimaga juda yaqin tursa-da, uni farqlovchi asosiy jihat shundan iboratki, izchil tarjimada tarjimon tarjimaga notiq so‘zlashdan to‘xtagandan so‘ng yoki nutqining bir qismini tugatgandan so‘ng kirishadi. Tarjimon notiq nutqiga xos kalit (joy, shaxs, mamlakat nomlari, fe‘l kabilar) so‘zlarni yozib oladi. Izchil tarjimada bir necha mazmunan bog‘liq gaplarni qamragani bois, tarjimondan bir emas, bir necha axborotlar va ularning tarjimasini xotirada saqlash va qayta yaratish mas‘uliyati oshadi. Bundan kutiladigan zo‘riqishni kamaytiruvchi omil notiq nutqidagi muhim tomonlarini qisqa va lo‘nda qog‘ozga qayd etib borish va xotirada qayta tiklash texnikasidir. Hozirda sinxron va izchil tarjimalarni umumiy tarzda konferensiya tarjimasi (conference interpretation), tarjimonni esa konferensiya tarjimoni (conference interpreter) deb atash urf bo‘ldi.

XXI asrning birinchi choragiga kelib sinxron tarjimaning yana bir yangi turi dunyoga keldi va u sinxron – izchil tarjima deb atalmoqda. Bunday aralash tipdagi tarjima turining mohiyati shundaki, notiq tomonidan asliyat tilida aytilgan diskurs qismi ovoz yozish qurilmasiga yozib olinadi, tarjimon yozilgan matnni yoki xotirasida yaratilgan tarjima variantiga tayangan holda sinxron tarjima qiladi. Retsipient uchun bu tarjima izchil, tarjimon uchun esa aralash tarjima hisoblanadi. Bunday tarjima turi tarjimon nutqini aniq va ravshan eshitish imkoniyati bo‘lmagan hollarda (sershovqin korxonalar yoki joylarda), notiq va tarjimon orasidagi oraliq masofa katta bo‘lgan paytlarda qo‘l keladi. Demak, sinxron tarjima turlarining xilma-xilligi ularning turli og‘zaki muloqot kontekstlaridagi vazifalari, muloqot ishtirokchilari tarkibidagi chet til vakillari va tillarning soni, tadbirlar sohasi va ko‘lami, tarjima jarayoni maxsus texnik qurilmalar bilan ta‘minlanganlik darajasi bilan bog‘liq ekan.

Shunday ekan, nazarimizda, jahon, shu jumladan o‘zbek sinxron tarjimashunosligi va sinxron tarjima amaliyoti oldida turgan istiqboldagi vazifalar quyidagilardan iborat, deb o‘ylaymiz:

- tarjimon sinxronistlarning milliy assotsiatsiyasini tashkil etish, tarjimonlar faoliyatini sinxron tarjima Xalqaro tashkiloti standartlari darajasida tashkillash, xalqaro tajribalarga tayangan holda tarjimon sinxronistlar faoliyatiga qo‘yiladigan talab va normalarni ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish;

- ma‘lum soha yoki turdosh sohalar (xalqaro diplomatiya, xalqaro tadbirlar, xalqaro biznes va turizm) ga ixtisoslashgan tarjimon-sinxronistlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish, ya‘ni diplomatiya va xalqaro aloqalar tarjimon- sinxronisti, xalqaro rasmiy konferensiya, forum tarjimon-sinxronisti; xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tarjimon-sinxronisti, harbiy tarjimon-sinxronist kabi ta‘lim yo‘nalishlarini ochish, bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlaridan so‘ng maxsus oliy tarjimonlar tayyorlovchi ikki yillik kurslarni tashkil etish.

- tarjimon-sinxronist (tillar va sohalar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishining DTSlari, o‘quv reja va fan dasturlarini xalqaro standartlar darajasida shakllantirish ta‘lim va amaliyot soatlarini tenglashtirish va ta‘lim jarayoniga tatbiq etish;

- amaliyot va stajirovkalarni xorij va mamlakatdagi xalqaro tashkilotlar kompaniyalar, qo‘shma korxonalar va boshqalarda o‘tkazilishni tizimli va maqsadli ravishda yo‘lga qo‘yish;

- sinxron-tarjima bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalari va oliy kurslarda mashg‘ulotlar olib boruvchi pedagog kadrlar tarkibini tanlovlar asosida bu sohada tajribaga ega bo‘lgan chet tillar bo‘yicha mutaxassislar hisobidan shakllantirish va ularni qayta tayyorlash;

- yangi ta‘lim yo‘nalishlari va oliy kurs tinglovchilari uchun yangi avlod darsliklari, o‘quv qo‘llanmalar va soha lug‘atlarini yaratish uzluksizligini ta‘minlash;

- tarjimon-sinxronistlar tayyorlovchi ta’lim muassasalari qoshida eksperimental va malaka laboratoriyalarini tashkillash, ularni zamonaviy qurilmalar bilan jihozlash, zarur resurslar bilan ta’minlash;

- sinxron tarjimashunoslik va tanqidchiligi bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqot ishlarini keng yo‘lga qo‘yish (magistratura, doktoranturalar ochish);

- tarjimon-sinxronistlar uchun bir nechta g‘arb va sharq tillarini puxta egallash shart-sharoitlarini yaratib berish va boshqalar.

Sinxron tarjima istiqboliga bevosita taalluqli bunday taklif-mulohazalar tarjimon-sinxronistlar tayyorlashni tizimli va maqsadli tashkillash imkonini yaratish barobarida dunyo xalqlari yuz tutayotgan umumiy muammolar va muammoli vaziyatlarni birgalikda bartaraf etishda “ko‘prik” vazifasini o‘tovchi sinxron tarjimaning amaliy samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rin egallagani, uning xalqaro aloqalari xaritasi miqyosi jadallik bilan kengayib borayotganligi, global taraqqiyot va farovonlik borasidagi yuzlab tashabbuslari dunyo hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotganligi sinxron tarjimaning kelajagi porloq ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alekseyeva I.S. (2001) Professionalniy trening perevodchika. [Training of a professional translator] – SPB: Soyuz, -288p.

2. Fyoderov A.V. (1983) Osnovi obshey teorii perevoda. [Foundations of general theory of translation]. Moscow. “Visshaya shkola” 303p.

3. Ilyuxin V.M. (2001) Strategii sinxronnogo perevoda (na materiale anglo-russkiy i russko-angliyskiy kombinatsiy perevoda). [Strategy of synchronic translation (on the materials of English-Russian and Russian-English combinations of translation)]. Moscow.199p.

4. Komissarov V.N. (1990) Slovo o perevode (Lingvicheskiye aspekti). [A word on translation. (linguistic aspect)] Moscow. Visshaya shkola 253p.

5. Leontovich O.A. (2011) Metodi kommunikativnix isledovaniy. [Methods of communicative studies]. Moscow. Gnozis, 224p.

6. Kochkina Z.A. (1963) Nekotoriye osobennosti deyatelnosti sinxronista perevodchika. [Some peculiarities of the activity of an interpreter synchronists]. In: Tezisi dokladov na II syezde obshetvo psixologov [thesis of reports of the society of psychologists at the II congress] Materials of the international scientific and practical conference. Vip.1 Moscow, APA, pp 26-35.

7. Shveytser A.D. (1973) Perevod i lingvistika (gazetno-informatsionniy i voyenna-publitsicheskii perevod) [Translation and linguistics] –Moscow. Voenizdat. – 215 p.

8. Seleskovitch.D. (1965) Colloque sur l’enseignement de l’inter- prétation. Paris, pp96-98

9. Seeber K.G. (2013) Cognitive load in simultaneous interpreting, measures and methods. – John Benjaming Publishing Company, 32 p.

10. Donato V. Strategies adopted by student interpreters in SI: a comparison between the English-Italian and German-Italian language-pairs [email resource] – URL: [http:// www.openstarts](http://www.openstarts).

11. Shiryayev A.F. (1979) Sinxronniy perevod: deyatelnost sinxronnogo perevodchika i metodika prepodovaniya sinxronnogo perevoda. [Synchronic translation: the activity of an interpreter synchronist and methodics of teaching synchronic translation] Moscow. Voenizdat, 183 p.

MUNDARIJA		
I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI		
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабур и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84